

BO'LAJAK BOSHLANG'ICH SINIF O'QITUVCHILARINI TAYYORLASHNING PEDAGOGIK ASOSLARI.

To'rayeva Dilnoza Ismoilovna

*Surxondaryo viloyati pedagoglarni yangi metodikalarga o'rgatish milliy markazi
"Maktabgacha, boshlang'ich va maxsus ta'lim metodikalari" kafedrası o'qituvchisi.*

Annotatsiya. Ushbu maqolada bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kasbiy – shaxsiy sifatlarini shakllantirish kelgusida ular tomonidan tshkil etiluvchi pedagogik samaradorlikni kafolatlovchi jarayonlar xususida so'z yuritilgan.

Kalit so'zlar: ta'limning glaballashuvi, kasbiy sifatlar, shaxsiy sifatlar, kasbiy faoliyat, pedagogik samaradorlik

Аннотация. В данной статье рассматриваются процессы формирования профессионально – личностных качеств будущих учителей начальных классов, которые в дальнейшем гарантируют организуемую ими педагогическую эффективность.

Ключевые слова: глобализация образования, профессиональных качеств, личностных качеств, профессиональной деятельности, педагогической эффективности

Annotation. This article discusses the processes of formation of professional and personal qualities of future primary school teachers, which further guarantee the pedagogical effectiveness organized by them.

Keywords: globalization of education, professional qualities, personal qualities, professional activity, pedagogical efficiency

Ta'limning glaballashuvi, shuningdek, uzluksiz ta'lim tizimini shakllantirish sohasida amalga oshirilayotgan islohotlar jarayonida pedagogika oliy o'quv yurtlarida ham o'quv – tarbiya ishlarini yangicha yondashuv asosida tashkil etish, ularning samaradorligini oshirish, bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy ko'nikma va malakalarini takomillashtirish hamda kasbiy – shaxsiy sifatlarini shakllantirish borasida bir qator ishlar amalga oshirilmoqda . Oliy ta'lim yurti faoliyatini nazariy, amaliy jihatdan o'rganish, ushbu jarayonda amalga oshirilishi mumkin bo'lgan bir qator vazifalar mavjudligini ko'rsatmoqda.

Pedagogika oliy o'quv yurtlari talabalarida kasbiy – shaxsiy sifatlarni shakllantirish, ularda mustaqil ravishda pedagogic faoliyatni tashkil etishda o'ziga xos ahamiyat kasb etuvchi ko'nikma va malakalarni rivojlantirishni talab qilmoqda. Mazkur vazifalarni ijobiyhal etishda boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kasbiy – shaxsiy tayyorgarligini ta'minlashga yo'naltirilgan pedagogik tizim muhim ahamiyatga ega.

Pedagogik mahoratni shakllantirishda samarali hisoblangan tamoyillar sifatida mualliflar quyidagilarni ko'rsatib o'tganlar:

1. Tizimli yondashuv;
2. Faol kommunikativlik (shaxslar aro muloqot);
3. Pedagogik harakatlarni aniq hisobga olish;
4. Mashg'ulotlar o'tash (pedagogik texnikani egallashga yo'naltirilgan);
5. Aspektli (mashg'ulotlar jarayonida mutaxassislik xususiyatlarini inobatga olish);
6. Bilim, ko'nikma va malakalarning o'zaro aloqadorligi.

Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kasbiy – shaxsiy sifatlarni shakllantirish kelgusida ular tomonidan tashkil etiluvchi pedagogik samaradorlikni kafolatlovchi jarayon sanalib, mazkur jarayonda quyidagi vazifalar hal etiladi:

1. Boshlang'ich sinf o'qituvchilarini kasbiy – shaxsiy tayyorgarligini ta'minlashning texnologik asoslarini ishlab chiqish;
2. Boshlang'ich sinf o'qituvchilarini kasbiy – shaxsiy tayyorgarligini ta'minlashning tizimli mexanizmini yaratish;
3. Tizim samaradorligini tajriba – sinov ishlari vositasida aniqlash;
4. Boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kasbiy – shaxsiy tayyorgarligini ta'minlashga oid ilmiy – tadqiqot ishlarini olib borish va ilmiy- metodik qo'llanmalar yaratish.

Yuqoridagi fikrlarga tayanib, o'qituvchi kasbiy – shaxsiy tayyorgarligini ta'minlashda amal qilinishi lozim bo'lgan didaktik qoidalar zarur:

1. Yangi tizimli mexanizm mazmuni asosini kasbiy faoliyat tajribalarini o'zlashtirish tashkil qilish zarur, ya'ni bo'lg'usi pedagogni tayyorlashning asosiy maqsadi unda kasbiy kompetentlikka yo'naltirilgan bo'lishi lozim.
2. Ta'lim jarayoni mantiqan subektiv amaliy tajribadan nazariy umumlashmaga tomon rivojlantirishga qaratilishi, ya'ni nazariy va amaliyot birligi asoslanishi zarur.
3. Talabalar kasbiy faoliyat tajribalarini faol egallash uchun ular oliy o'quv yurtlarida ta'lim olishlarning dastlabki davridanoq pedagogic amaliyot o'tash rejalashtirilishi lozim.
4. Oliy o'quv yurtlarida o'qitishning mazmuni mohiyatan butkul o'zgacha tashkil etilishi, ya'ni nazariy va amaliy bilimlarni egallashdagi mutanosiblik ya'ni tizimli yondashuv asosida mashg'ulot o'tashlari zarur.

5. Kasbiy tajribalarni egallash tizimli tarzda muntazam va izchillik bilan amalga oshishi lozim.

Mutaxassisning shaxsiy imkoniyatlariga tayangan holda amalga oshadigan kasbiy-pedagogik faoliyat boshlang'ich sinf o'qituvchisidan jismonan baquvvat, mustahkam xarakter va kuchli iroda egasi bo'lishni talab etadi. Shuningdek, barqaror diqqat, eng oddiy holatlarni ham e'tiborga ola bilish, mashg'ulotlarning davomiyligini yaxlit nazorat qila olish, uning mohiyatini to'g'ri anglash, ijobiy mazmun kasb etuvchivaziyatlarning ta'sir kuchidan samarali foydalana olish, ziddiyatlar kelib chiqqan vaziyatlarda oqilona, qat'iy qaror qabul qilish va ularni bartaraf etishga erishish, ushbu vaziyatlarga nisbatan shaxsiy yondashuv mohiyatini tanqidiy baholash, o'z xulqiga ishonch va o'quvchilarning o'rniga o'zini qo'ya olish kabi sifatning mavjud bo'lishi, jamoa orasida sog'lom muhitning qaror topishiga erishishi, o'quvchilar va hamkasblari orasida obro' e'tiborga ega bo'lishi, shuningdek, uning shaxsiy kasbiy faoliyatida muayyan yutuqlarni qo'lga kiritishi uchun imkoniyat yaratadi,

Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchisi o'zining ijodkorlik xislatlarini namoyon eta olishi, dunyoqarashi va tafakkurining kengligi, boy tasavvurga egaligi, kuchli xotira, ijodiy layoqat hamda yuqori darajadahissiy o'z - o'zini boshqarishga ega bo'lishi zarur. Bu xislatlarning namoyon bo'lishi va barqarorlashuvida pedagogik amaliyotning o'rni beqiyosdir. Talabalarning pedagogik amaliyotda faol ishtirok etishlari, tajribali boshlang'ich sinf o'qituvchilarining ish faoliyatlari bilan tanishishlari, ularning kasbiy – shaxsiy bilimlari mahorat sirlarini o'zlashtirishlariga asos bo'lib xizmat qiladi. Talaba uchun ilg'or tajribalarni o'rganish, o'zining kasbiy darajasini baholash, mavjud kamchiliklarini ko'ra olishiga imkon beradi.

Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kasbiy – shaxsiy tayyorgarligini ta'minlashga yo'naltirilgan pedagogik faoliyatni tashkil etishda dastlab talabalarning shaxsiy imkoniyatlari, psixologik va fiziologik xususiyatlarini o'rganishga bo'lgan e'tibor o'zining ijobiy natijasini beradi.

Bizning nazarimizda, talaba shaxsida aks etishi zarur bo'lgan aqliy, axloqiy hamda irodaviy sifatlar quyidagilardan iborat:

1. Irodaviy sifatlar – qat'iyatlik, jur'atlilik, shijoatlilik, mardlik, jasurlik, tartib – intizomlilik, irodali bo'lish, vaziyatni to'g'ri baholash hamda oqilona qaror qabul qila olish, og'ir, vazminlik. Insonparvarlik, mehribonlik, mehr – shafqatlilik, mustaqillik, shijoatlilik, jismoniy barkamollik, faollik, sabr – toqatlilik, bardoshlilik, chidamlilik, harakatchanlik kabilar.
2. Aqliy sifatlar – bilimdonlik, vaziyatni o'z vaqtida va to'g'ri baholay olish, ijodkorlik, mulohazalalik, kuchli xotira, mustaqil fikrlash layoqatitezligi, mantiqiy xulosalarga kela olish, diqqatning barqaror bo'lishi kabilar.

3. Estetik sifatlar – go’zallikni his qila olish, ozodalik, saranjom – sarishtalik, jozibalilik, qaddi – qomatnito’g’ri tuta bilish, nutqning ta’sirchan bo’lishiga erishish, emotsionallik, ijodkorlik, tafakkurning kengligi boy fantaziyaga egalik va hakazolar.
4. Kommunikativ sifatlar – to’g’ri so’zlilik, xushmuomilalik, hozirjavoblik, samimiylik, o’zgalar fikrini tinglay olish, mustaqil fikrga ega bo’lish, o’zgalar manfaatlari yo’lida harakat qilish, fidoiylik, mehr – shafqatlilik, oliyjanoblik, bag’ri kenglik, erkinlik, ta’sirchanlik va boshqalar.

Bugunki kun talablaridan kelib chiqib, pedagogika oliy o’quv yurtlarida tahsil olayotgan talabalar quyidagi sifatlarga ega bo’lishlari lozim:

1. Ijtimoiy – g’oyaviy jihatdan yetuklik.
2. Mutaxassislikka oid bilimlarni chuqur egallaganlik.
3. Ma’naviy – axloqiy fazilatlarga egalik.
4. Nutq va muloqot ko’nikmalarini egallaganlik.
5. Ijtimoiy faollik.

Barkamol insonni shakllantirish yuklatilgan o’qituvchining o’zida, avvalo kasbiy malaka, ko’nikma va sifatlar, ma’rifiy – madaniy mahorat shakllangan bo’lishi shart. Oliy pedagogik ta’lim muassasalarida kasbiy – shaxsiy shakllanish kommunikativ ko’nikmalar va pedagogik mahoratni qaror toptirishdan boshlanadi.

Oliy pedagogik ta’limning zamonaviy konsepsiyasi, avvalo bo’lajak o’qituvchilarning chuqur ilmiy – malakaviy tayyorgarligini ta’minlovchi bilimlarni egallash, ularning ijodiy, ma’rifiy salohiyatini rivojlantirish uchun zarur shart – sharoitlar yaratishni taqazo etdi. Shu sababli ham bo’lajak o’qituvchi shaxsi va unga zamon talablariga mos ta’lim - tarbiya berishning nazariy masalalarini o’rganish pedagogika fani oldida turgan dolzarb masalalardan biridir.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. O’zbekiston Respublikasi Prezidentining
2. “O’zbekiston Respublikasi innovatsion rivojlanish vazirligini tashkilotishto’g’risida” gi Farmoni.
3. O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2015 yil 4 fevraldagi
PQ 2293-sonli “Axborot-kommunikatsiyalariga oid vazirlikni tashkilotish
to’g’risida” gi Qarori.
4. O’zbekiston Respublikasi Prezidentining “Oliy ta’lim tizimini
yanada rivojlantirish chora tadbirlari to’g’risida” gi Qarori.
5. Ostreykovskiy V.A. Informatika. Uchebnoe posobie dlya vuzov. - M.:

Высшаяшкола, 2000, 511 s.

6. Rutkovskaya D., Pilinskiy M., Rutkovskiy L. Neyronnyeseti, geneticheskiealgoritmyinechetkiesistemy. -M.: Goryachayaliniya - telekom,2004, 452 s.
7. Tarkov M.S. Neyrokompyuternye sistemy. Uchebnoeposobie. -M.: Internet-UniversitetInformatsionnyh texnologiy; BINOM. Laboratoriya znaniy, 2006, 142 s.
8. Abramyan, G.V. Teoreticheskieosnovy professional'nogo stanovleniyapedagoga v informatsionnoysrede: dis. ... d-ra.ped. nauk: 13.00.08 / AbramyanGennadiy Vladimirovich. – Sankt-Peterburg, 2001. – 510 s.
9. Aliev R.A., Aliev R.R. Teoriyaintellektual'nyh sistem. Uchebnoe posobie. - Baku: Chashiogli, 2001. - 720 s.145
10. Abrosimov, A. G. Razvitieinformatsionno-obrazovatel'noysredy vysshegouchebnogozavedeniyaosnoveinformatsionnyh i telekommunikatsionnyhtexnologiy: dis. ... d-ra.ped. nauk: 13.00.02/ AbrosimovAleksandrGrigorievich. – M., 2005. – 261 s.
11. Abrosimov, A. G. Teoreticheskieiprakticheskieosnovysozdaniya informatsionno-obrazovatel'noysredyvuza/ A. G. Abrosimov. – Samara: Izd-voSamarskoygosudarstvennoyekonomicheskoyakademii, 2003. – 204 s.
12. Axayan, A. A. Teoriyaipraktikastanovleniyadistantsionnogo pedagogicheskogoobrazovaniya: dis. ... d-raped. nauk: 13.00.08 / AxayanAndrey Andreevich. – SPb., 2001. – 439 s.
13. Grinshkun, V.V. Kachestvoinformatsionnyh resursovi professional'nyekachestvapedagogov. Vzaimosvyazyi problemy/ V.V. Grinshkun // Informatikaibrazovanie. M., – 2013. – №1. S. 79- 81